



# **Termiz shahrida musiqa va san'at matabining yangilangan binosi foydalanishga topshirildi**





Davlatimiz rahbarining madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish bo'yicha belgilab bergen topshiriqlariga asosan Surxondaryo viloyatida madaniyat va san'at maktablari va muassasalari zamonaviy ko'rinishga keltirilib, zarur sharoitlar bilan ta'minlanmoqda.



Xususan, bugun 2,5 mlrd so'mga rekonstruksiya qilingan, zamonaviy sharoitlar bilan ta'minlangan Termiz shahridagi 2-sonli bolalar musiqa va san'at matabining yangilangan binosi foydalanishga topshirildi. Tadbirda Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov ishtirok etib, yangilangan binoda bolalarning musiqa va san'atni o'rganishlari, iqtidorlarini namoyon etishlari uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

O'qituvchi va murabbiylar hamda madaniyat sohasi faxriylari bilan suhbatda Prezidentimizning sohaga qaratayotgan e'tibori sabab yoshlarimizning musiqa va san'atga qiziqishi ortib borayotganligi, ular uchun barcha sharoitlar yaratib berilayotganligi ta'kidlandi.





Shuningdek, hududlarda aholining madaniy xordiq olishi uchun xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, madaniyat bo'limlarining moddiy-texnika bazasi hamda sharoitlariniya yaxshilash maqsadida Madaniyat vazirligi tomonidan ajratilgan 6 ta "Damas" avtomashinasi Termiz shahri hamda Angor, Muzrabet, Jarqo'rg'on, Qiziriq va Sarosiyo tumanlari madaniyat bo'limlariga topshirildi.

